

**O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta mahsus
ta`lim vazirligi**



**Al-Xorazmiy nomidagi Urganch Davlat Universiteti
Tarix faqulteti 303-guruh talabasi Bobojanova
Layloning**

**“MANBASHUNOSLIK”
fanidan yozgan**

Р Е Ф Е Р А Т И

**Mavzu: Sharofiddin Ali Yazdiyning
“Zafarnoma” asari.**

Qabul qildi:

Yusupov Sh.

2011

**Mavzu: Sharofiddin Ali Yazdiyning
“Zafarnoma” asari.**

MUNDARIJA :

I KIRISH.....2,3

**Zafarnoma asarining yaratilish tarixi va undagi voqealar
rivoji.....2-5**

II ASOSIY QISM.

Amir Temurning hokimyat tepasiga kelishi.....6

Jangi loy urishi va unda Amir Temur jasorati.....10

Amir Xusayin va Amir Temur o’rtasidagi ittifoqsizlik.....20

III. Xulosa.....27

IV. Foydalanilgan adabiyotlar.....28

Kirish.

Sharofiddin Ali Yazdiyning Amir Temur hukumronligi davriga oid “Zafarnoma” asari O’rta asrlar tarixnavisligining ajoyib yodgorliklaridan biridir.

Mavaraunnaxrda kechayotgan tarixiy jarayonning ana shu davrda XVI asrning 2-yarmida Amir Temur tarix saxnasiga ko’tarildi. Uning faoliyati qilgan yurishlari haqida batafsil bayon etilgan.

Sharofiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asari badiiy uslubiy jihatdan malumotlarga juda boy. Temurning mahoratli sarkarda ekanligini Shu asarda yaqqol ko’rishimiz mumkin. Yana bu asarning qimmatini shuki unda Temur yurish qilgan har bir shahar davlatning iqtisodiy madaniy va ijtimoiy hayoti to’la yoritib beriladi.

Amir Temur mamlakatda ijtimoiy iqtisodiy hayotni izga soldi va ayniqsa Samarqand shahrini dunyodagi eng obod poytahtga aylantirish maqsadida butun dunyodan qo’li gul mohir ustalarni keltirib uni obodonchiligiga katta etibor qaratdi.

Bu asarda Amir Temurning boshqa bunyodkorlik ishlarini ham ko’rishimiz mumkin.

Sharofiddin Ali Yazdiyning bu asari aslida 3 qsimdan iborat bo’lishi kerak edi. Muarrihning vafoti tufayli uning bizga amir Temur faoliyatiga bag’ishlangan 1-asosiy qismi yetib kelgan.

Mavzuni dolzarbligi: XVI asrning mashhur asrlaridan biri bo’lgan, o’z davri haqida muhim ma’lumotlarni beruvchi va buyuk sarkarda Amir Temur faoliyati va uning butun hayoti haqida batafsil haqida ma’lumot beruvchi “Zafarnoma” nafaqat o’tmish balki bugunki kun va kelajak uchun ham muhim manba . “Zafarnoma” asarining dolzarbligi shundaki bu asar orqali biz Temur yashagan muhit xalqning ahvoli haqida ma’lumot olishimiz mumkin.

Mavzuni o’rganilish darajasi:

“Zafarnoma” asari ustida ko’plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Horijiy mamlakat kutubhonalarida O’zbekiston FA si, Shaqsunoslik institutida uning 24 nusxasi bo’lib ularning ikkitasiga XV-XVII asrlarida rasmlar ishlangan. Asar 1838

yil Mayls tomonidan ingliz tiliga,1845-48 yillarda Bombeyda hind tiliga tarjima qilingan.

Mavzuni o'rganishdan maqsad: "Zafarnoma" asrini bugungi kunda ham ko'pgina olimlar tomonidan o'rganib kelinmoqda.Amir Temur shaxsi haqida muhim bo'lgan va Amir Temurning hali ochilmagan qirralarini bilib olish mumkin.

Ishning hajmi: Mundarija, Asosiy qism-3 reja, xulosa , foydalanilgan adabiyotlardan iborat

Zafarnoma asarining yaratilish tarixi va undagi voqealar rivoji .

XV asr tarixiy yozma yodgorliklari mazmun jihatidan har turli: hujjatlar, sayohatnomalar, tazkiralar, maqomotlar, insho-yozishmalar va xrkazo. Ular o`sha davr siyosiy tarixini, davlat tuzumini, madaniyatini, tashqi aloqalarini mukammal yoritishda qimmatli manbadir. Tarixnavislar yozgan maxsus asarlarning o`zi ham katta bir ro`yxatni tashkil etadi. Ana shunday manbalar ichida, hozirgacha etib kelgan, fors tilida yozilgan Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma", Hofizi Abro`ning "Zubdat ut-tavorix", Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Mu`iniddin Natanziyning "Muntaxab ut-tavorix", Fasih\_ Ahmad X,avofiyning "Mujmali Fasihiy", Abdurazzoq Samarqandiyning "Matla'i sa'dayn", Mirxondning "Ravzat us-safo", Xondamirning "Habib us-siyar" va Ibn Arabshohning arab tilida yozilgan "Ajoyib al-maqdur fi navoib Temur" asarlaridir. Bu ro`yxatga yana 1404 yili Samarqandda Amir Temur huzuriga tashrif buyurgan ispan sayyohi Rui Gonzales de Klavixonning safar xotiralarini hamda yana bir qancha asarlarni ham kiritish mumkin. Ular orasida Hofizi Abro` yozgan "Zubdat ut-tavorix" (1423-1427 yillarda bitilgan) va Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"si (1424-1425 yilda Sherozda yozib tugallangan) tarixiy kechmishlar bayonining izchilligi va batafsilligi bilan ajralib turadi.

Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"si Temur saltanatiga oid ma'lumotlarni ancha batafsil qamrab olishi bilan bir qatorda Amir Temurdan oldingi davr tarixidan ham bahs etadi (bu qism "Muqaddima" nomi bilan adabiyotda mashhur.)

"Zafarnoma" muallifi "Sharaf" taxullusi bilan yuritilgan Sharafiddin Ali Shayx Hoji Yazdiyning o`g`li bo`lib o`z askarlari tufayli zamondoshlari orasida katta shuhrat va obro` qozongan edi. U o`zining yirik tarixiy kitobi "Zafarnoma"dan tashqari, falsafa, astrologiya, adabiyot va tasavvufning nazariy masalalariga oid asarlar ham yozgan.

O`zbek mumtoz adabiyotining asoschisi Alisher Navoiy Sharafiddin Ali

Yazdiyning bilimi va asarlariga baho berib, "Mavlononing soib kamolig'i olam ahli qoshida musallamdur",— deb yozgan edi. Sharafiddin Ali Eronning Yazd shahridan uncha uzoq bo'lmagan Taftda tug'ildi. Uning tug'ilgan yili noma'lum. U 818/1415-1416 va 838/1435-yillar orasida Shohruxning o'g'li Ibrohim Sulton xizmatida bo'ldi. Sharafiddin Ali Yazdiy o'z asari "Zafarnoma"ning yozilishini o'sha davrning o'qimishli kishisi, adabiyot, tarixning muhibi va bilimdoni bo'lgan ana shu Ibrohim Sulton nomi bilan bog'laydi. U Fors o'lkasi hukmdori edi.

Ibrohim Sulton vafoti (838/1435 yil)dan keyin Sharafiddin Ali Shohruxning nabirasi — Mirzo Sulton Muhammad saroyiga taklif qilinadi. Sulton Muhammad 846/1442-1443 yilda Sultoniya, Qazvin, Ray va Qumni o'z ichiga olgan viloyatga hokim qilib tayinlangan edi. 849/1445-1446 yilda Sulton Muhammad Shohruxning xastaligidan foydalanib, o'z yaqin kishilarining ig'vosi bilan (bular orasida Sharafiddin Ali ham bo'lgan) isyon ko'taradi va Hamadon, Isfahonni egallaydi, Sherozni qamal qiladi.

Shohrux betobligiga qaramay, Hirotidan chiqib isyon ko'targan shahzodaga qarshi yuradi. Shohruxning Sherozga yaqinlashib kelayotganligidan xabar topgan Sulton Muhammad shaharni qamaldan bo'shatib, Luristonga qarab qochadi, Shohrux esa Isfahonga qaytib kelib, bu erda Sulton Muhammadning tarafdorlariga jazo bera boshlaydi. Gunohkorlar orasida Sharafiddin Ali ham bo'lgan edi. Biroq Sharafiddin Ali bu jazodan omon qolgan, chunki Mirzo Ulug'bekning katta o'g'li Abdullatif Sharafiddin Alini juda qattiq so'roq qilganligi tufayli Shohrux uni jazolashni shahzoda ixtiyoriga bergan. Abdullatif esa Sharafiddinning hayotini saqab qolib, uni Hirotga jo'natgan.

Mashhur shoir Abdurahmon Jomiyning biografiyasini yozgan Kamoliddin Abdulvose an-Nizomiy o'zining Jomiy hayotini tasvirlashga bag'ishlangan va shoirning o'zi tomonidan ko'rib chiqilgan "Maqomoti mavlaviy Jomiy" asarida yozishicha, ana shu voqeadan keyin Sharafiddin Ali Hirotga kelgan va u Injil arig'i qirgog'ida. Jomiy bilan uchrashgan.

Aftidan, Shohrux vafotidan (850/1447 yil) keyin tez orada Sharafiddin Ali o'z vatani Taft (Tafti Yazd)ga qaytib keladi va bu erda xonaqohga joylashib, o'z umrining oxirigacha shunda yashaydi. Alisher Navoiy(844/1441-906/1501) o'zining "Majolis un-nafois" asarida yozishicha, u olti yashar bolaligida "Shohrux Sulton buzug'lig'ida (ya'ni Shohrux vafotidan keyin yuz bergan feodal notinchliklar vaqtida — A.O'.) katta bir jamoat bilan birgalikda Xurosondan chiqib Iroqqa jo'nayotgan otasi bilan Taft orqali o'tar ekan, Sharafiddin Ali bilan yashagan xonaqohda bo'lib, uni ko'rgan. Demak, 850/1447 yilda Sharafiddin Ali Taftda yashayotgan bo'lgan.

Shundan keyingi yillarda o'sha Taftda Abdurazzoq Samarqandiy D1arafiddin Ali bilan uchrashgan. "Matlai sa'dayn" asarida keltirilgan ma'lumotga ko'ra, 856 yil rajab oyida (1452 yil avgustida) Iroqdan Xurosonga qaytayotgan Abdurazzoq Samarqandiy Tafti Yazdda bo'lgan. Shu erda Sharafiddin Ali bilan uchrashib, uning xonaqohida uzoq suhbat qilgan.

Sharafiddin Ali Yazdiy 858/1454 yilda vafot etgan va o'sha xonaqohda dafn etilgan.

Muarrix "Zafarnoma" asarini Shohruxning o'g'li Ibrohim Sulton tashabbusi bilan bitganligini aytadi. Uning ta'kidlashicha, Ibrohim Sulton bobosi Temur haqida maxsus kitob yozdirishni niyat qilgan va 1419-1420 yilda turli kotiblar — baxshi va munshilar tomonidan Temur haqida turkiy hamda forsiy tilda yozilgan mavjud ma'lumotlarni to'plash haqida farmon chiqargan. Jamlangan ma'lumotlar voqealarni o'z ko'zi bilan ko'rgan kishilar hikoyasi bilan taqqoslangan, keyin Sharafiddin Aliga ular bilan tanishish va bu haqda Ibrohim Sultonga axborot berish topshirilgan.

1.SHarofiddin Ali Zafarnoma 13-16 betlar

A

ir Temurning hokimyat tepasiga kelishi

"Zafarnoma"ning Temur tarixidan bahs etuvchi asosiy qismida Sharafiddin Ali shunday yozadi: "Podshohlikning barcha tomonlaridan Temur haqidagi turkiy va forsiy tillarda bayon etilgan hkioyalarning hamma she'riy hamda nasriy nusxalari to'planib bo'lgach, ular bilan tanishish uchun uchta guruh tuzilgan, turkiy va forsiy tillarning bilimdonlari ikki guruhni, voqealarni o'z ko'zi bilan ko'rganlar. Ana shu asosda . Sharafiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma" asarini yozgan. Ibrohim Sultonning buyrug'iga muvofiq kitobni bitish vaqtida sanalar, joy nomlari, ular orasidagi masofa haqidagi barcha ma'lumotlar juda sinchiklab tekshirilishi shart bo'lgan.

Sharafiddin Ali oldiga asarni jonli hamda tushunarli qilib yozish talabi qo'yilgan. Shuningdek, uning hujjatlarga qat'iy rioya qilishi, Ibrohim Sultonning bevosita nazoratida amalga oshirilgan dastlabki xomaki yozuvdan chetga chiqmaslik hamda hech narsani bo'yab ko'rsatmasligi lozim edi. Shu bilan birga, asarni yozishda Sharafiddin Ali Yazdiy o'z shaxsiy kuzatishlaridan ham unumli foydalangan.

Muallifning niyatiga ko'ra, asar "Muqaddima" qismi va uchta maqoladan iborat bo'lishi kerak edi. Birinchi maqolani Temurga, ikkinchisini Shohruxga (1405-1447), uchinchisini Shohruxning o'g'li Ibrohim Sultonga mo'ljallangan. Binobarin, qo'limizdagi "Zafarnoma" niyat qilingan ana shu uch qismli, asarning birinchi maqolasidan iborat, xolos. Boshqa ikki maqola yo'q — ular Sharafiddin Ali tomonidan yozilmagan yoki yozilgan bo'lsa ham bizgacha etib kelmagan.

"Zafarnoma" yozilgan davridan boshlab ilm-fan ahli e'tiborida bo'ldi. Bu haqda Ali Yazdiyning asrdoshi Abdurazzoq Samarqandiy keltirgan satrlar ham yaqqol misoldir. U shunday yozadi: "Qutli fol bu yilning (828/1424-1425) nodir voqealaridan (biri) "Zafarnoma" nomli ajoyib kitobning bitilishidir. Bu kitobni qalami husni xat bituvchi jahon xushta'blarining nozik so'zlisi, Eronning eng fazilatli kishisi, oqillik burjining ravshan yulduzi, matonat qutichasining duri,

Allohning rahmatiga cho'milgur mavlono Sharafiddin Ali Yazdiy yozib tamomlagan hamda mushkin raqam bilan xosu omning dimog'iga anbar bo'y nasim etkazgan, so'z ulug'ligini javzo cho'qqisidan yuqori o'tkazgan.

"Zafarnoma" XV va XVI asrlarda qahramonlik qissasi janrida ikki marta she'riy yo'l bilan: o'zbek tilida shoir Lutfiy va mashhur shoir Abdurahmon Jomiyning jiyani Hotifiy (vafoti 1521) tomonidan nazm etilgan edi. XVI asr boshlarida Shayboniylarning dastlabki vakillaridan biri bo'lgan Ko'chkunchixon (1510-1530) topshirig'iga muvofiq Muhammad Ali ibn Darvesh Ali Buxoriy tomonidan "Zafarnoma" o'zbek tiliga tarjima qilingan. Adabistlarda Hofiz Muhammad ibn Ahmad al-Ajamiy tomonidan asarning turk tiliga tarjima qilinganligi aqida ham ma'lumot bor. Darvoqe, "Zafarnoma" 1822-1823 yillarda Xivada Xudoyberdi ibn Qo'shmuhammad So'fi al-Xivaqiy tomonidan o'zbek tiliga qisqartirib tarjima qilinganligi ham ma'lum. Lekin bu tarjimalar qisqartirilgan, erkin tarjimalar bo'lishi bilan bir qatorda, hozirgi vaqtda ularning mavjud nusxalari turli mamlakatlar kutubxonalarida saqlanadi hamda ularni hozirgi zamon ilmiy tarjima talabi va mezonini bilan o'lchab bo'lmaydi. Shunga qaramasdan, bu tarjimalar ham o'ziga xos qimmatli manba bo'lib qoladi. XVIII asrda "Zafarnoma" bir oz qisqartirilgan hodda Peti de la Kroat tomonidan frantsuz tilida (1713) va ana shu nusxa asosida J.Darbi tomonidan ingliz tilida (1723) nashr etilgan. Sharqshunos A.Krimskiy asarning Bradutti tomonidan amalga oshirilgan italyancha tarjimasi haqida xabar beradi. Bundan tashqari, "Zafarnoma" dan ayrim parchalar boshqa tillarda nashr etilgani ham-ma'lum.¹

"Zafarnoma"ning forsha matni Mavlaviy Ilohdod tomonidan asarning oltita qo'lyozma nusxasi asosida nashrga tayyorlanib, Tehronda ikki jildda yangidan chiqarildi.

Lekin yuqorida aytib o'tilgan va hozirgi vaqtda nodir nashrga aylanib qolgan

¹ I.A.Karimov. Tarixiy hotirasiz kelajak yo'q. T.1998.20-25 b.

frantsuzcha va inglizcha tarjimalarda "Zafarnoma"ning beshdan bir qismini tashkil etuvchi "Muqaddima" qismi tarjima qilinmagan. Shuningdek, Kalkutta nashrida ham, Tehron nashrida ham "Muqaddima"ning forsiy matni berilmagan.

Sharafiddin Ali Yazdiyning o'zi qayd etishicha, "Muqaddima" "Zafarnoma"ning ajralmas qismidir. Shunga qaramasdan, asarning bizgata etib kelgan ko'pgina nusxalarida "Muqaddima" yo'q. Uning nusxalari ko'proq Temur tarixidan ajralgan tarzda uchraydi. Bu holni, birinchidan, muarrixlar ko'proq bevosita Temur davri bilan qiziqqanligi, ikkinchidan esa, Temurdan oldingi davr tarixi Rashididdinning (1318-yilda qatl etilgan) "Jome' ut-tavorix", Juvayniyning (vafoti 1283) "Tarixi jahongusho" asari va boshqa manbalarda ancha to'liq bayon etilganligi bilan izohlash mumkin. "Muqaddima" muallif tomonidan "Tarixi jahongar" (Jahongir podshoh Chingizxon nazarda tutiladi), deb atalgan, shu bilan birga ilm-fanda "Debocha" deb ham yuritiladi; u so'zboshi, ikki

fasl va xotimadan iborat. "Muqaddima"ni yozishdan maqsad Temur shajarasini bayon etish va uning ilgarigi podshohlardan davlat va harbiy arbob sifatidagi ustunligini isbotlash edi. Shu munosabat bilan muallif turkiy qabilalarning kelib chiqishi va Chingizxonning to'rt ulusi tarixini bayon etadi. XIV asr birinchi yarmida Turkiston va unga qo'shni bo'lgan mamlakatlardagi siyosiy vaziyatni ta'riflaydi: feodal tarqoqlik va o'zaro urushlarning kuchayishini va bu hol Movarounnahrda markazlashgan davlat asoschisi Temurning tarix maydonida paydo bo'lishiga shart-sharoit yaratganligini ko'rsatib beradi.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar xazinasida "Zafarnoma"ning to'la matni ("Muqaddima" bilan birga) saqlanmoqda. Bu qo'lyozma, asarning Institut xazinasidagi boshqa nusxalari va Tehron nashriga solishtirilib, nuqson va xatolari izohlarda to'ldirilgan va tuzatilgan hamda ko'rsatkichlar ilova qilingan, izohlar va kattagina so'zboshi yozilgan holda faksimil (foto aksi) tarzida nashr etilgan. Ushbu satrlar muallifi mazkur institutning bir guruh ilmiy xodimlari ko'magida amalga oshirgan edi. (Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. Toshkent, 1972 y.) Bu

nashrning o'ziga xos tarixi borki, bu haqda kengroq to'xtab o'tmoqlik o'lkamizda umuman Temuriylar davri yozma merosini o'rganish masalasiga ham daxldordir. 1969 yili Samarqandda YuNESK Oning Temuriylar davri san'atini o'rganishga bag'ishlangan xalqaro ilmiy anjuman bo'ldi. O'sha nufuzli kengashda O'rta Osiyo xalqlari madaniy merosining jahonshumul ahamiyatga molik tomonlarini o'rganish xususida maxsus qaror qabul qilingan va amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar qatorida Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" sini nashr etish ham bor edi. Ana shu asosda 1972 yili O'zFA Sharqshunoslik institutida "Zafarnoma" nashrga tayyorlandi va u 1972 yili fotofaksimil shaklda 1500 nusxada chop etildi. Bu nashrga Sharqshunoslik instituti bilan bir qatordE; Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyi va O'zbekiston Respublikasi "Fan" nashriyoti ham homiylik qildilar. "Zafarnoma" ning Toshksnt nashri ilgarigi mavjud Kalkutta va Tehron nashrlaridan bir muncha farq qiladi. Avvalo, bu nashr uchun asarning XVII asrda ko'chirilgan va Uzbekiston FA Sharqshunoslik instituti xazinasida saqlanayotgan 4472 raqamli nodir qo'lyozma asos qilib olindi. "Qo'lyozmaning qimmatli tomonlaridan biri shuki, unda asar matni to'liq berilgan, shu asarning eski nusxalarining aksariyatida uchramaydigan "Muqaddima" ham saqlangan. "Muqaddima" asarning beshdan bir qismini tashkil qilib, shu davrga qadar hech qaerda nashr etilmagan edi. Bu hol Sharafiddin Ali Yazdiy asari ustida manba'shunoslik bo'yicha o'tkazilayotgan matnshunoslik ishida katta kamchilik bo'lib kslmoqda edi", — deb ta'kidlab o'tgandi xiu nashrning mas'ul muharriri, mashhur sharqshunos olim marhum A.K.Arends, o'zining kitobga yozgan bosh so'zida. "Zafarnoma" ning Toshkent nashrida noshir tomonidan nashr etilayotgan nusxa matnini asarning shu Institut xazinasida saqlanayotgan boshqa nusxalari matni bilan qiyoslab chiqish bilan bir qatorda, uning Tshron nashri bilan ham solishtirib chiqilgan va juz'iy tafovutlar shaxs nomlari, geografik nomlar, etnik va boshqa atamalar ko'rsatkichlari ham ilova qilingan. Bu bilan nashr tarixchilar va manbashunos tadqiqotchilar uchun katta ilmiy ahamiyat kasb etgan edi.

Jangi loy urishi va unda Amir Temur jasorati

"Zafarnoma" kitob do'konlari peshtaxtalarida paydo bo'lishi bilan ko'pchilik kitobxonlar diqqatini jalb etdi. Kitob tezdatarqala boshlab, hatto xalqaro kitob savdosiyo'li bilan ham bir necha yuz nusxa sotilgan edi. Biroq, tez orada matbuotda "Temur shaxsiga sig'inish", "Temuriylar davrini bo'rttirib yozish" kabi mavzularda maqolalar chop etilib, Temurilar davri yozma merosini o'rganish ishi toshbo'ronga uchradi. Buni qarangki, ko'p o'tmay, O'zKP Markaziy Komitetining qarori ham chiqib, ba'zi asarlar orasida Sharafiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma"si ham "qoralandi" va uning O'zbekistonda ilk bor paydo bo'lgan nashrining sotib ulgurilmagan nusxalari kitob do'konlaridan yig'ib olindi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu fotofaksimil nashrdan so'ng, asarni o'zbek va rus tillariga tarjima qilish rejalashtirilgan edi. Lekin qayd etib o'tilgan sabablarga ko'ra, bu ish o'sha paytda amalga oshmay qoldi. Mana hozir "Zafarnoma"ning Toshkentda nashr etilganiga ham yigirma yildan oshdi. Yangi zamon bo'ldi. Mustaqillikning iliq shamoli esdi. Hozir "Zafarnoma"ni ham, yuqorida qayd etilgan nashr asosida, o'zbek tiliga ilmiy izohlar ilova etib tarjima qilishga kirishildi. Ushbu tarjimaning dastlabki qismlari xalqimiz sevib o'qiydigan "Sharq yulduzi" oynomasi sahifalarida katta xayrixohlik bilan chop etildi.

"Zafarnoma" murakkab yozilish uslubi, so'z va iboralarning rang-barangligi bilan ajralib turadi. Katta hajmdagi bu tarixiy asarning Sharafiddin Ali Yazdiy tarjimasi davom etmoqda va u, tabiiyki, ma'lum muddat talab qiladi.

Kitobxonlar e'tiboriga hozirgi havola etilastgan "Zafarnoma"dan terma tarjimalar, asosan, "Sharq yulduzi" oynomasida chop etilgan matnni o'z ichiga oladi. Ayni paytda, bu nashrga, oynomada berilmagan ayrim lavhalar ham kiritildi. Ushbu kitobda oldinga qo'yilgan asosiy maqsad, birinchi navbatda "Zafarnoma"dagi bevosita Movarounnahr tarixi bilan bog'liq voqealarni, jumladan, Amir Temurning mo'g'ullar istilosiga qarshi mardonavor, tinimsiz kurash olib borib, g'olib chiqqanligi, o'lkada feodal tarqoqlikka barham berganligi va nihoyat, birlashtirib mustaqil davlat tuzganligi tafsilotlarini bayon etishdir. Bu lavhalar

O'zbekiston tarixi uchun bevosita ma'lumot beruvchi manbadir. "Zafarnoma"dan tayyorlangan ushbu tarjima, asosan, keng kitobxonga mo'ljallanganligi sababli, izohlar bir muncha sodda tarzda tuzildi. Qur'on oyatlari, hadislar, umuman arabcha matn tarjimada chiziqcha bilan ajratilgan, tarjimonning Yazdiy matniga uslubiy ehtiyojdan kelib chiqib qilingan qo'shimchalari va qisqartirilgan qismlar mazmuniga oid izohlari, asarning boshqa nashrlari va nusxalaridan ilovalar qavsda berilgan. She'rlarni tarjima qilganda asosiy e'tibor matn mazmunini saqlab qolishga qaratildi. Kitobning hoshiyasidagi raqamlar "Zafarnoma"ning mazkur Toshkent faksimil nashri sahifalarini anglatadi.¹

(Bismillo hirrahmonir rahim. Ko'plab maqtov va qutlov sen (parvardigor)gakim, — istagan kishingga mulk ato qilursan va xohlagan kishingdan (ul) mulkni qaytarib olursan.1 Duoyi xayr ul xotam-ul-anbiyolar va sayyid-ul-avliyolar Muhammadga, uning xonadoniga, oliyjanob sahobalariga va diyonatli qavm-qarindoshlariga bo'lsin!)

U barchaning — oshkoru nihrning egasi va Nihonu oshkor uning nazdida ayondir.

U quyosh chehrasiga jilo beruvchi va Bizning naqshimizni suv yuziga tushirguvchidir.

Mavjudlik unga xos bir tangri erur, Borligidan o'zgasi foniy erur.

Qanday komil san'atdurkim, bir vujudan Barcha bor va bo'lgan (narsalar) paydo erur.

U bir xumdan yuz turli rang chiqarmish, Falakka shitob berib, Erga vazminlik berur.

O'sha paytda dushman lashkari ogoh bo'lib, shabixun qilmoq iloji qolmaganligi uchun, ul Hazrat qaytmoqni afzal bildi va Ko'rdung yo'li bilan ravonga bo'ldi. Muxolif lashkar (sipohlari) ancha ustun va ko'p bo'lishiga qaramay, ularning juda oz sonli ekanliklarini ko'rib turib ham, o'z joylaridan jilmadilar va biror kishi

¹ Sharofiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. T. 1994. 13-20 b

ularning ortidan bormadi. Hazrat Sohibqiron Qarshiga qaytib keldi va u erdan Buxoroga yo'l oldi. Ali Yasavuriy va Mahmudshoh kutib olmoqni vojib deb bildilar va qulluq qadami ila peshvoz chiqib, xizmatkorlik vazifasini o'rniga qo'yidilar. Humoyun mavkab sog'-salomat, saodat ila Buxoro shahriga kelib tushdi.

Amir Joku bundan oldin Mahmudshohni ot dumiga bog'lab choptirgan va oldi-orqasiga savalab qattiq jazolaganligi sababli, unga ishonch yo'q edi. Sadoqatlilik ramzi sifatida hazrat Sohibqironning hurmatli xotiryga solib: "Fursat Xuroson tomon bormoqni maslahat berur", — derdi, lekin qanchalik mubolag'a qilmasin, ul Hazrat qabul qilmadi. Amir Joko', amir Sayfuddin va Abbas-bahodir o'zaro birlashib, ijazatsiz Xuroson tomonga, aniqrog'i Moxonga ketdilar.

Bir necha kundan so'ng, Amir Husaynning mang'loyi bo'lmish amir Muso va Uljoyto son-sanoqsiz lashkar bilan Buxoroga yaqinlashgani xabari etdi. Hazrat Sohibqiron Ali Yasavuriy va Mahmudshohga, davlat va mamlakat manfaati hamda shijoat va mardlik taqozosi uldurki

Nazm

Biz lashkarni shahardan olib chiqaylik,

Dushmanlar ustiga shabixun qilaylik,

deb buyurdi. Ularda ul muhim buyruqni bajarish kuch-quvvati yo'q edi, (shu sababdan) ko'nmadilar hamda, "Biz bandalar o'z joyimizni saqlab turmoqni va dushman etib kelgach, ularning hujumini qaytarishni maslahat bilamiz", — dedilar. Hazrat Sohibqiron (ularning so'zidan) xavf va yomonlik qilish belgilarini mushohada etganligi, shuningdek, xatti-harakatlarida hech bir sabotlilik ko'rmaganligi uchun u yerdan jo'nab Xuroson tomon yo'l oldi. Omo'ya suvining bo'yiga etib kelganida, baxtli bir tasodif bilan yuqoridan o'nta kema oqib kelardi; kemalarni tutishga buyurdi. Suvdan o'tib olib, cho'lga kirdilar. Marvdan o'tib, Moxonda saodat va iqbol ila humoyun ug'ruqqa qo'shildilar.

Amir Husayn lashkar bilan Buxoroga etib kelganidan so'ng, Ali va Mahmudshoh, yordam berishga rozilik bildirgan shahar aholisi bilan qo'rgonni egallab, qo'riqlab turdilar. Lashkar qo'rgonni tashqaridan o'rta olib jang qilishga

kirishdi. Shahar ahli mardlik ko'rsatib Gulobod darvozasidan chiqdilar va jasorat bilan jangga yuzlandilar. Amir Husayn makr yo'lini tutib, lashkarini olib to olam shayxi Sayfiddin Boxarziy mozorigacha, — (Alloh) uning qabrini yorug' qilsin, — qochib borib, so'ng yana qaytdilar. Tojiklar lashkar qochib ketyapti, deb o'ylab, qurol-aslaha, bolta va palahmon olib, ular Sharafiddin Ali Yazdiy ketidan to'xtamasdan quvldilar. Lashkar ortga qaytdi va bir hamla bilan hammani to darvoza oldigacha quvlab, ko'plab boshi ortiqchalik qilganlarni qahr-g'azab qo'li bilan qulatdilar. Qolganlar esa, har tomonga qochib, zo'rg'a jonni o'lim xataridan saqlab qoldilar, tir va kamonni uloqtirib teshiklar va somonxonalarga bekinib oldilar va damlarini ichlariga yutdilar Ali va Mahmudshoh yana bir karra xalqni yig'ib shaharni muhofaza qilmoqchi bo'ldilar. Lekin bul bobda qanchalik tirishmasinlar va odamlarni chorlamasinlar, hech kim ularning so'ziga quloq tutmadi. Ular majbur bo'lib darvozani ochib tashqariga ot surdilar va Moxon tomon oshiqdilar. Ular davlat engini fursat qo'lidan chiqarib yuborgan edilar. Endi ojizlik etgani majburlik tishiga olib (Sohibqiron) ortidan yugurmoq lozim bo'ladi.

Amir Husayn ularning ortidan bakovul jo'natdi, to (Jayhun) suvi bo'yigacha ot surib, navkarlarining ko'pini halok etdilar, tamomi mollari va ot-ulovlarini o'lja oldilar, Ali va Mahmudshoh otda, qolgan bir guruh navkarlar piyoda zo'rg'a jon saqlab qoldilar. Ular suvdan o'tib cho'lga kirdilar va Marv orqali Moxonga kelib hazrat Sohobqiron palosini o'pmoqlik saodatiga erishdilar, o'zlarining turli xatti-harakatlaridan sharmandayu-sharmisor va ul Hazrat lutfu marhamatidan umidvor edilar. Xisravona marhamatlar ularning xatolariga kechirmoq raqamini chekdi va ko'p mehribonlikla ko'rsatib, ot hamda to'n bilan sarafroz etdi. Sohobqiron shu payt ovga otlandi va ularga ham o'z mulozimlari qatoridan o'rin belgiladi.

Amir Husayn Buxoroni zabt etgach, bir necha kun o'sha erda bo'ldi, so'ngra amir Xalilni bir qanch amirlar va katta lashkar bilan Buxoron qo'riqlash uchun qoldirib, o'zi Soli-Saroyga qaytdi. Hazrat Sohobqiron buyrug'i bilan Moxo to'qayzorlariga o't qo'yib yoqib yubordilar, ular yangidan ko'karib chiqqandan so'ng otlarni o'tlatib semirtirib oldilar.

Hazrat (Sohibqiron) xizmatkorlarini iltifoti tufayli darbadarlik xor-zorligida xalos bo`lib, o`zining asl joyi bo`lmish Omo`ya va uning tavobida hokimiyatga etishgan Nekpaysho haqida ul Hazratning oliy qulog`iga etib, shu kezlarda, u — inson haddidan oshdi. Hukmiga bo`ysunmoqlik yo`lidan chetga bosib, isyon uchun bosh ko`tarmish, hazrat (Sohibqiron) huzuriga bormoq niyati bilan ehrom bog`laganlar ul Hazrat navkarlari va boshqalarni, bilib qolsa, tutib olib qamab qo`yar va o`tkazmas ekan.

Husayn va hazrat Sohibqiron har qaysisi o`zining davlat va komronlik poytaxtida orom topdilar ish va ahvolning kechishi omon-esonlikka muvofiq, orzu-umidlar nog`orasi g`alaba va iqbol zilolidan limmo-lim — muruvvatli saxiy Allohga maqtovlar bo`lsin. Siz yoqtirmaydigan narsada (Alloh siz uchun ko`p) yaxshilik ato etmishdir — (oyati) mazmunining gullar bilan chiroy ochgan tikanli chamanidan bashorat nasimi baxtsizlik va g`am-andux maydonida shikast topganlar joni dumog`iga etib boradi matlablar va maqsadlar kelinlari qiyinchiliklar va baxtsizliklar libosida jilvalanadi, ne`mat va ato lutflarini g`am va mashaqqat dasturxonida tortiq etadi. Bu Allohning qudratli hikmatining belgisidir.

(N a z m)

Qay oshiqkim do`stning yashirin lutfidan
ogoh erur, Yo`lida uchragani — tikan yo gul uning xayridur.

Katta davlat qiyinchilik orqali keladi, katta birlik va muvaffaqiyat esa, tarqoqlik va omadsizlik sababli bo`ladi.

(N a z m)

Yaxshidur raxna, mustaxkamlik asosi bo`lsa, Yaxshidur anduh, agar unda xurramlik bo`lsa.

Yaxshidur qulf, agar uning bandi ko`rinmasa, Ochib ko`rganingda, u qulf emas, kalit bo`lsa.

Hazrat (Sohibqiron) o`z davlati poytaxtida saodat va iqbol ila orom olib o`tkazgan qish fasli tugagach, bahor qahramoni lola bayrog`ini ko`tarib, yashil

maysalardan chakmon kiygan sipohini bog`u-bo`ston maydoniga boshlab keldi.

Hazrat Sohibqiron himmat yuzini lashkar yig`moqqa qaratib, (bir) kishini yuborib Amir Husaynni ul voqeadan xabardor qildi. Amir Husayn (o`z navbatida) Po`lod-Bug`o, Muhammadxoja apandining o`g`li Zindahashim va Malik Bahodirlar sipoh birla ilg`or qilib iloji boricha tezroq hazrat Sohibqironga qo`shilsinlar, deb buyurdi. Ular hazrat (Sohibqironga) borib qo`shilgach, hujum paytida osmonday salobatli, yurish chog`ida sayyora kabi harakat qiluvchi lashkar bilan birgalashib dushman tomon yuzlandilar.

Oqor mavzeiga etganlaridan so`ng, ot-ulov ahvolini mulohaza qilib bir necha kun o`sha maysazorda bo`ldilar. U erdan ko`chib yurishda davom etdilar va Xo`jand suvidan o`tib qo`ndilar. Amir Husayn ko`p sonli lashkar yig`ib ularning ortidan oshiqdi, (Xo`jand) suvi bo`yiga etib kelganida, ul tarafdan dushman lashkarining mangloyi yaqinlashib qolgan edi.¹

Hazrat Sohibqiron Chinos va Toshkent oralig`idagi suv bo`yini o`z qo`nimgohi qilib belgiladi va sipohga turob va chir bilan o`z joylarini mustahkamlab, ehtiyotkorlik va hushyorlik shartlarini o`rniga qo`yishni buyurdi.

Amir Husayn orqasidan kelayotgan butun lashkar bilan Sayxun suvidan o`tdi va ular mo`lchallariga kelib tushdilar. U tomondan dushman sipohi ham Bodom suvi bo`yiga etib kelib o`rnashdilar.

Amir Husayn va hazrat Sohibqiron ul erdan qo`zg`alib yo`lga chiqdilar. Har ikkala tomon qorovullari bir-birlarini ko`rgach, lashkarni tuzashga kirishib, saflarni rostladilar. O`ng qo`l tomonda Amir Husayn shon-shavkat bayrog`ini Ayyuq yulduzigacha ko`tardi. Uning qanbulida Tilonchi arlot, hirovulda Uljoytuy apardi, Sher-Bahrom, Po`lod-Eug`o, Farhod Apardi, Malik-Bahodir va boshqa dongdor bahodirlar bor edi. Olamning joni va harakatning yuragi bo`lmish hazrat Sohibqiron chap tomonda (turib) ikkala yoritqichga (qo`shimcha), zafarpaykar

¹ Sharofiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. T. 1994. 28-32 b.

bayroq hilolini uchinchi (yoritqich) qildi. U amir Sori-Bo`g`oni qipchoq qavmi bilan birga qanbulga belgiladi hirovulga Temurxoja o`g`lon tayyorlanlandi; amir Joko`, amir Sayfuddin, amir Murod barlos, Abbos-bahodir va boshqa qilichboz bahodirlarni qo`lda olib turdi. Ana shu tartib-qoidaga asosan, lashkarni olg`a surdilar.

(N a z m)

Kasbi o`ch olmog`u botirlik qilmoq,

Sanaganda yov sipohidan ko`proq.

Biroq (oyatda), — Hunayn kunisiz o`zingazning ko`p sonli ekanligingizdan mag`rurlangan (edingaz), — deyilganidek, hayratlanish azobidan salomat qolmadilar. Jata (qo`shinlari) Qayamitandagi jang maydonida son jihatidan ortiq bo`lishlariga qaramay, bu tomon sipohidan qattiq shikast topgan edilar. Bu tomon lashkari ulardan ko`p bo`lib turgan endigi paytda bo`lsa, hiyla ishlatmoq yo`liga o`tdilar. Ya`ni, xosiyati yaratganning ajoyib san`atlaridan biri bo`lmish jada toshi vositasida jada qildilar.

(N a z m)

Shamolni go`yo Sulapmon kabi minib olib, Momaqaldiroq gulduratib, chaqmoq chaqnatib,qazo pistirmasidan havo maydoniga ot surdi, momaqaldiroq ko`ragasining guldurashini gardunning to`nkarma moviy toqiga taratib, chaqmoq tirlarini momaqaldiroq kamonidan har tomonga yo`naltirdi ya`ni, yomg`irdan tir yasab tirbo`ron qila boshladi. O`sha kezlarda zamonaning fitna va oshubga bo`lgan ishqiy yangilangan edi. Bulutning ko`zidan shunchalik ko`p suv to`kilgan ediki, (hatto) to`fon qo`zg`aldi.

Shunday bo`ron turdi ul yurtda sen dersan, bulut Ul dam Nuh duosarz\* sadosini eshshpmish but Tuproqqa shuncha ko`p suv va nam singdiki, Erning sigiri xuddi baliq kabi suvda suzib ketdi va jang maydoni bedovlari shu darajada loyga botdiki, qorinlarining terisi urning orqasida ariq o`zaniga aylandi. Rutubatning ko`pligidan paykon kamon suyagidan astarxo kasaliga uchrab, iztirobga tushdi, falajga o`xshab qaltirab sulayib qoldi va uning uchlarida o`raldi.

Tir qushining qanoti osilib, tumshug`i ishdan chiqqan edi, o`ta nam bo`lganligidan kiyim-kechak va boshqa narsalar shu darajada og`irlashgan ediki, otliqda ham, piyodada ham qimirlashga hol qolmagandi. Shunday bo`lsada, ovul tomon sipoxi oriyat va botirlikning zo`rligidan olg`a borardilar. Dushman lashkari esa, o`z joylarida turib, boshlariga kigiz yopinib olgan edilar va imkoni boricha kiyim-bosh hamda yaroq-aslahani yomg`irdan asrardilar.

(Bu tomon) lashkari ularga etib borganda, ular kigizlarni boshlaridan uloqtirib, dam olib turgan otlar bilan, qurol-yarog`ni avaylab saqlagan holda jangga tashlandilar.

Ikkala lashkardan qo`zg`oldi suron, G`avg`oga to`ldi o`ng va so`l jahon.

Botirlar hamlasi, karnay sasidan Hattoki charx ham toygan edi holdan.

Har yon urho-ur, ham sovuqning zahri, Botirlar hamlasiyu, o`q yomg`iri.

Qilni yoruvchi biylak o`rtabon jon Kindik umurtqadan izlardi makon.

Ko`zga qadaluvchi o`q "ko`ngil so`rar", Nafis tan ichra bag`imi yondirar.

Hazrat Sohibqiron tangrining ko`magi bilan maysaradan hujum qildi va dushmanning qanbulida amir Hamidning birodari Shingum no`yon turgan maymanasiga shikast etkazdi. Bu holni ko`rgan Ilyosxojaxon qochmoqqa yuz o`girdi.

Biroq, zamona to`g`ri yo`ldan chetga qadam qo`yganligi sababli, qanbuli Shirovul va Hojibek bo`lgan dushman lashkari bu tomonning o`ng (qo`l)idan ustun keldi hamda Tilonchi va Zindahashimlarni quvlab Amir Husayn qoshig`acha olib bordilar. (Natijada), ularning qo`l qismi engilib tarqalib ketdi va qocha boshladilar. Sher-Bahrom va Po`lod-Bo`go sabot matonat oyog`ida mustahkam turib mardlik ko`rsatdilar. Hojibek bul tomonning maymanasini oldiga solib quvlab

borayotganini ko'rgan Farhod va O'rung-Temur hayron to'xtab qoldilar. Ul tomondan amir Shamsuddin ham katta bir guruh bilan g'ayrat qo'lini dovyuraklik engidan chiqarib mardlarcha kurashdilar. Hazrat Sohibqironning g'urur olovi alangasi oldi, zabardastligi va nasl-nasabliligini

tasdiqlovchi qo'li bilan qilichla suv kabi olov purkadi, Quyoshning ko'zi undan xira bo'ldi. Surib soldi ot o'kiruvchi sherday, Temir dubulg'asi misli ajdarday

O'n etti qo'shin bilan dushman ustiga yopirildi va olov (kabi) hamlasining shamoli ularnin sabru-qaror xirmoniga vahima soldi. Amir Shamsuddin ul Hazratning salobati qo'rquvidan iqtidor jilovini jang maydonidan burib, oji va quti o'chgan yuzini qochmoq sari o'girdi.

(N a z m)

Jangu jadal aylanib mard maydon bo'lib, Jahonni jahon istovchiga tor qilib.

Ularni mang'loy rasmi ila jo'natib, tezda Xo'jand suvidan o'ting va o'ch olmoq olovini hamla shamoli bilan alangalatib dushman bilan jang qiling, deb ta'kidladi.¹

Amir Husayn lashkarining kelayotganligi xabari hazrat Soxibqironga etib kelganda, oqshom payti edi. Jahon oftob firoqidan va bulut qalinligidan shu darajada qorong'u ediki, falak oyni chiroq qilib ham yo'lni ko'rolmasdi bulut kundan-kunga yuksalib borayotgan davlat hasadchilari ko'zidan oyni to'sib, bo'ralab qor yog'ardi. Xuddi dushmanlari niyatidek qaxratonda ham qoraroq, bulut esa xuddi hazrat Sohibqironning dengizdek marhamat qo'li kabi kumush yog'dirardi.

(N a z m)

Havo to'la bulut va er to'la qor, Quloqqa etmasdi labdan so'z biror. Gardun savlatli a'lo hazrat (Sohibqiron):

O'shal ondayoq shartta mindi otiga, Suyanib tangri ko'magi

¹ B.Ahmedov. O'zbekiston tarixi manbalari. T. 2001. 154-156 b.

quvvatiga. Amir Kayxusrav bu yurishda xuddi baxt misol birga edi. Ular besh yuz kishi bilan tavakk yuzlarini yo'lga qaratib, yarim kechada Pors kechuviga etdilar va kechuvlarni to'sib oldil Buyruqqa ko'ra burg'u chaldilar. Osmoniy dav quvvati hazrat Sohibqiron haybatini dilla solganligi uchun ko'p sonli va shavkatli o'sha lashkar birgana ovozning o'zidan yovvoyi poda, sarosimaga tushib, o'sha tunning o'zidayoq bo'yidan shabgir qilib qaytdilar va Amir Husayin qoshig'a ketdilar.

Sipoh edi xijil sipohdordan, Sipohdor sharmisor o'z baxtidan. Shu payt Bahrom jaloyir omadli ham Sohibqironning va Kayxusravning ruxsatisiz roziligisiz Jata lashkari bilan Toshkesh chiqib, Sayrom tomon ketdi. Sohibqiron Kayxusravning ugruqi Bahrom (jaloyir) odi bo'lganligi uchun (ular) o'z odamlari ortidan tomon yurdilar va Sayromga etganlarida, ug'ruqlarini Chimiykent qishlog'idan topdi Bahrom hazrat Sohibqiron yetib kelish) oldinroq u erdan ketgan edi. Ul Hazrat Sori va Oqbug'o-Bahodirni lashkar yig'ib kelish Jata tomonga Shamsiddin va Hojibek qo'l jo'natdi. Qishlov joyi haqida fikrlar maslahatlashib, olganlaridan so'ng, Kayxisrav O'trorga ketdi; hazrat Sohibqiron esa, olti sara sipoh bilan qaytib, qishni saodat ila Toshkentda o'tkazdi; Firdavsiy "Shohnoma" bu shaharni "kaklilar jannati" atagan, uni Choch va Shosh ham deydilar.

Bu borada xon va Amir Husayn qanchalik urinmasinlar, intilmoq qo'llari murod etagiga etmadi; qarshi chiqish maydonida shon-shavkat buyukligi va sipoh ko'pligini orqa qilib qanday bayroq tikmasinlar, u hazrat Sohibqiron davlati sanchgan tadbir nayzasi (zarbidan) yer bilan yakson bo'ldi. Sovuqning lashkari hujum qilib, qorning oppoq palosi olam kengligada yozilgan chog'da, ular majbur bo'lib qaytib ketdilar. Po'lod bo'g'oni bir guruh bahodirlar bilan Samarqandni egallab turish uchun qoldirdilar, o'zi esa xon bilan Arhang-Saroyga ketdi va qish faslini o'sha erda o'tkazdilar.

Amir Xusayin va Amir Temur o'rtasidagi ittifoqsizlik

Qish fasli oxirlagach, sabo va shamol elchilari bahor lashkarining yetib kelganligi ovozasini yoydi. Qumri va bulbul o'git aytguvchilari gulning tikon bilan inoqlashuvi bobida dostonlar bitdilar.

Hazrat Sohibqiron Jata tomonga yuborgan Saribug'o va Oqbug'o-Bahodir qaytib keldilar va Jatadan son-sanoqsiz lashkar kelayotganligi xabarini etkazdilar. Ul Hazrat haqiqiy Sohibqiron bo'lganligi va — Alloh tomonidan qo'llab-quvvatlanganligi — har doim ozgina sipoh bilan katta-katta lashkarlarni mag'lub etganligi, bir oz kishi bilan katta ishlarni uddalaganligi va baxt-iqboli (xosiyati)dan g'aroyib ishlarni amalga oshirganligi uchun Amir Husayn har doim uning ko'nglini olishni o'ylab yurardi va u bilan yarashishga harakat qilardi. Bahorni dastlabki kunlarida Jata lashkari ul Hazrat yordamga kelmoqchi ekanligi xabarini eshitdi. O'zicha o'yladi: "Agar Jata tomonidan uni sipohiga lashkar kelib qo'shilsa, u samo yo'lidagi metin tog'day bo'ladi va hamlasi bizni bitta xaschalik ham bilmaydi; u paytda butunlay dunyoda qo'lni yuvib, dildan jonni sug'urmoq lozim bo'ladi.

(N a z m)

Ul kim lashkarsiz bu jahonni qilmish ostin-ustsh

Sipoh unga kelib qo'shilgach, kim chiqarsa damin.

U Xo'jand va Toshkentning olimlari va shayxlaridan yordam so'rab, ulardan iltimos qilishni ma'qul ko'rdi: "Ular hazrat Sohibqiron bilan yaqin bo'lib, din va musulmonchilik eshigidan kirsinar hamda ular o'rtasidagi mavjud urush janjal sulh va yarashmoq holatiga etkazsinlar ikki o'rtada ko'tarilgan g'azab changini va alanga olgan fitna olovini pand-nasihatning zil (suvi) bilan bostirsinar", — dedi. Dars va fap ashoblari, zuhd va taqvo arboblari (oyatdagi) mo'minlardan ikki guruh qushshib qolsa, ularni orasini tuzab qo'yingerlar, — (degan) so'zlar zaruratidan yarashmoqlik chakmonini kiyib, qo'lini sadoqat engidan chiqardilar va ixlos oyo ila ul sarvar Sohibqiron qoshig'a keldilar va rasm-rusumlarini ado etgach, ush so'zlarni arzag'a etkazdilar: "Bu bandalarga hazrat Sohibqironning bilim,

dindorli lutfu-marhamat va yaxshi ishlar qilish bobi barkamolligi aniq ma'lum bo'lganligi uchun oxirat ezguligidan iborat bo'lmish bir hojat bayon qilmoqqa jur'at etmoqdamiz. Ahvol shundayki, siz bilan Amir Husayn o'rtasidagi dushmanlik aslida mamlakat xarobaligiga va ra'iyat parishonligiga sabab bo'lmoqda. Janjal shu darajagacha borib etishi mumkinki, siz begona lashkarning bul diyorga kelishiga yo'l qo'ygaysiz va kofirlarning hujum qo'li musulmonlar xuni va moli sari cho'zilgay agar ular to'satdan g'olib kelib, bosib olsalar, sizni ham ayab o'tirmaydilar¹.

(N a z m)

So'z adovatni ul joyga eltajak, Qadim xonadonni harob etajak.

Har doim sizning ahvolingizga yo'ldosh bo'lgan va bo'ladigan parvardigor ko'magidan umidimiz shul erurki, (oyatda); — kelishish yaxshidur, — deyilganiga ko'ra, har ikkala tomonning sadoqat va do'stlik oynasiga o'rnatilgan qudrat zangi yarashmoq sayqallagichi vositasida jilo topajak, toki mulk va millat ishlari, lashkar ra'iyatining salomatlik va tinchligining kelinchaklari uning shaffofligida o'z chehralarini ko'z-ko'z qilsinlar.

Baxtli tasodif bilan shu yaqin o'rtada hazrat Sohibqiron bir tush ko'rgan edi. Unda Xo'jand suvida sel kelayotgan, u esa sel o'rtasida bir parcha yog'och ustida o'tirib sajda qilayotgan va nochorlar dodini eshitguvchi (tangri)dan najot so'rayotgan edi. Dahshatga tushganidan xushdan ketdi, ko'zini ochib qarasa, o'zini Samarqand tomondan daryo bo'yida ko'rdi. Ortga qarasa, ulkan daryo bir tekis hayqirib oqayotganini ko'rdi. Uyuqdan uyg'ongach, muborak ra'yi davlat ilhomi ila ul jo'shqin selni lashkar, deb ta'bir qildi; Samarqand tomonda ko'rgan najot holatini esa, nimaiki murodi bo'lsa, o'sha tomondan hosil bo'ladi, deb bildi. (Shundan so'ng), ko'nglida Jata tomondan yordam so'rash va umid qilish yuzini butunlay burdi. Shu payt, o'sha saralab olingan kishilar kelib yarashmoqni iltimos qildilar va bu borada yaxshi so'zlar aytdilar. Ul hazratning to'g'ri (yo'lni)

¹ Azamat Ziyov. O'zbek davlatchilik tarixi. T. 2000. 126-132 b.

ko'rsatuvchi ra'yi mahkamasida, unga ikkita adl guvohi vositasida, yaxshi tadbir kelishmoqlik va yarashmoqlikning katta yo'lidadir, deb hukm chiqarildi. Muborak xotir shu asosda quyidagicha mulohaza qildi: "To bir gurux kishilar o'rtasida kelib- ketib muzokaralar olib borgunlaricha, bu muddatda ish paysalga tushish va kechikish arosatida qolib ketadi. (Yaxshisi) o'zim Amir Husayn oldiga boraman har qancha bahs munozara bo'lsa ham yuzma-yuz aytilsa va eshitilsa, qudrat g'ubori harna tezroq o'rtadan ko'tariladi".

(N a z m)

Ov chog'ining arslonidek botirlar, O'z salomlarin o'zlari elturlar.

Shu sababdan, Panjshanba ismli navkarni o'z o'ylagani haqida bildirish uchun Amir Husayn huzuriga jo'natdi. Ul baxtiyor (Sohibqironning) barcha ishlarni shaxsan o'zi amalga oshirishi, uning qilmishlaridan bir shingil erur. (Hozir ham) shaxsan o'zi sadoqat yuzini Safo Ka'basi tomon qaratdi va zudlik bilan ikkilanmasdan yo'lga otlandi. Sayxundan o'tib Samarqand tomon yurdi. U erga etib borib, muborak chiqishining oftobi balqib Samarqand shahrini munavvar qildi. Quyosh endi chiqib kelayotgan edi. U shaharga kirmoqchi bo'ldi. (Shu payt) shahardan bir kishi etib kelib: "Amir Husayn vafot etmish", — degan yolg'on xabarni etkazdi. Hazrat Sohibqiron bu xabarni eshitgach, shaharga kirishni ma'qul ko'rmadi va yo'l yurmoq jilovini Shodmon tomon burdi. Shodmonga shod-xursand etib borgandan so'ng, Amir Husayn tomondan kelayotgan bir necha qo'shin bilan yuzma-yuz bo'lib qoldi. Ular hazrat (Sohibqiron)ga hujum qildilar. (Ul hazrat) zarbani qaytarish uchun (tangri) qo'llovi ila hamla qildi va ularni mag'lub etib, har tomonga to'zitib tashladi.

U yerdan Yom suvi bo'yiga kelib tushdi va otlar to'yib o'tlab olguncha ma'lum muddat o'sha yerda bo'ldi. So'ngra saodat ila yo'lga otlandi. Niyoziy mavzesiga yetib kelganida, amir Muso o'ziga tegishli bo'lgan G'onchi hazorasini va boshqa (turli) sipohlarni to'plab, lashkar bilan qarshi chiqdi. Bu tomon bahodirlari hazrat Sohibqiron o'rtada paydo bo'lgan qudrat samimiyat bilan almashsin, degan maqsad va niyatda Amir Husayn bilan muloqot qilmoq uchun borayotganligidan

uni xabardor qildilar. Amir Muso lashkari ko'pligiga orqa qilib, ul so'zlarga quloq solmadi. Jang-jadal chog'ida lashkar ko'pligi emas, balki boshliqning mardligi muhimligini anglab etmadi. Ko'p sipohning tayanchi bitta otliq bo'ladi.

(Amir Muso) o'zini bir necha bor sinab ko'rgan bo'lsa ham yana lashkarni sarflab urushmoqchi bo'ldi. Hazrat Sohibqiron amir Sayfuddin va Xitoy-bahodirni ellik kishi bilan jo'natdi va ular dushmanning orqa tomonidan hujum qildilar. O'zi esa yetmish kishi bilan ularning oldini to'sdi. Amir Musoning lashkari ham orqadan, ham oldindan sipohlar hujumga o'tganini ko'rib, shuningdek, necha marta bu sipohning hamlasini ko'rganliklari va azobini tatiganliklari sababli, o'sha zahoti qochib, (Qur'on oyatlarida), — ular xuddi yo'lbarsdan qochgan quyondek edilar, — (deyilganidek), tarqab-to'zib ketdilar. G'olib lashkar ularning ortidan ot surib, ko'plarni qahr-g'azab qilichi damidan o'tkazdilar, ancha kishini otdan ag'darib halok etdilar. Shu vaqt ichida hazrat Sohibqiron Arg'unsho

Bo'rdoliqiyini arzigulik sovg'a-salomlar bilan oilasi ahvolidan xabar olish uchun Moxon tomonga yubordi. Shu payt oldindan Amir Husaynning lashkari keldi, degan xabar etdi. Hazrat Sohibqiron etib kelib, o'sha olti yuzta sipoh» safga tizib, bir tepalikni egallab turdi. Otliqlarni o'z ichiga olgan o'ttizta qo'shından iborat qaravunos lashkari naymana va maysarash

tuzib etib kelib, ularning ro'parasida safga turdilar va har ikkala tomondan shovqin-sur'on ko'tardilar.

(N a z m)

Har ikkala tomondan suron ko'zg'aldi,

Qo'rquvdan dur sadafda la'l rang bo'ldi.

Ul bahodirlar yo'l bosib, zahmat chekib o'zlari mo'ljallab kelgan ishga kirishsinlar va hujm qilsinlar, deb hazrat Sohibqiron zafarpat etdilar.

Panjshanba Amir Husayn huzuriga etib borib uning umid qulog'i uzluksiz yo'lga qaratib xabarni etkazdi. (Amir Husayn) ul so'zlarni deb qabul qildi hamda yarashishni zimmaga olib dushmanlikdan voz kechish haqida qasam

ichib ahd bog`ladi. Ahd-paymon bu tomondan ham mustahkam bo`lsin deb Panjshanba bilan birga Turonshohni yubordi. (Ular etib kelishi bilan) hazrat Sohibqiron Abbos-Bahodirni Turonshoh bilan birga jo`natdi. Amir Husayn Abbos-Bahodir orqali yana bir bor ahd bog`ladi va paymonni ishonch ila qayd etdi. Ya`ni Amir Muso va Uljoytuni o`n ming kishi bilan yuborib, ularga hazrat Sohibqironni rozi qilib, u bilan sulh tuzing, shunday harakat qilish kerakki, bizning o`rtamizda albatta muloqot bo`lsin, deb uqtirdi.

Ular Qahalqa va Keshdan o`tib Samarqand yo`lidagi Kumushkent qishlog`iga, Ali-atoning, — (Alloh) uning qabrini munavvar etsin — tabarruk mozori o`sha erda, kelib tushganlarida, hazrat Sohibqiron Sug`dning Aliobod (mavzesiga) kelib qo`ngan edi.¹

Ular sulh tuzmoq uchun kishi yubordilar. Ul kishi Ko`hak suvidan o`tib hazrat Sohibqiron xuzuriga keldi va palos o`pish sharafidan baxtiyorlik topib amirlarning yarashmoqlik bobidagi istaklarini arzag`a etkazdilar. Ul Hazrat yuz kishini va amir Muso yuz kishini olib bir-birlari bilan uchrashsinlar, o`shanda ularning iltimosi inobatga olinib sulh tuzilajak degan qarorga kelindi. Bu taklif amirlarga yetib borgach, ular darhol otlanib yuz kishi bilan yo`lga chiqdilar. Hazrat Sohibqiron ikki yuz kishi bilan jo`nadi. Ular bir-birlariga yaqinlashganlarida ul Hazratning mulozimlari: "Amir Husaynning nomdor amirlari shular erurlar, o`z oyoqlari bilan tuzoqqa kelmishlar. Agar ularni qo`lga olsak, boshqa unda biz bilan bellashishga kuch qolmaydi va butunlay xarob va nochor ahvolga tushib qoladi. Falakning gardishi qulay vaziyat yaratmish va fursatni g`animat hisoblamog lozim", — deb so`z qotdilar. Ul Hazratning oliy himmatiga ul so`z quloq solmadi va "ahdni buzmoq mardlikda emas", — dedi.

(N a z m)

Gar so`zin ustidan chiqar ekan mard, Gumonlardan ustun turar ekan mard.

¹ Azamat Ziyo.O`zbek Davlatchilik tarixi.2000.142-146 b

Amir Muso va Amir Uljoyto` hazr Sohibqiron qoshiga etib kelgach, samimiyat ila uzrlar aytdilar. Ikkala tomondan do`stlik hamjihatlik ahdini yangiladilar, vahshat qudrat butunlay o`rtadan ko`tarildi. Hazr Sohibqiron ularning ko`ngli to`lsin, deb Amir Musoning manzilgohiga tushdi va sobiq odatga ko`p xursandchilik va hamjihatlik palosi yozildi.

Shundan so`ng ular lashkarga ijozat berib qaytarib yubordilar, o`zlari ham uy-uy-larga qaytdilar. Ul Hazrat Kesh tomonga yo`l olib, jannatmisol viloyatga kelib tushdi. Ul joyni zodagonlari va (oddiy) xalqi u bilan ko`rishishga musharraf bo`lmoqqa oshiqib, marhamatla navozishlar ila taqdirlandilar. O`sha vaqtda Badaxshon shohlari xon va Amir Husaynga qarshi isyon ko`targan edilar. Husayn lashkar tortib ular ustiga yurdi (Badaxshon) shohlari ham o`z qo`shinlarini yigib olg`a yurdilar va har ikkala tomonning lashkarlari yuzma-yuz bo`lib o`rnashdilar. Hirot hokimi Malik Husayn Badaxshon shohlarining bosh ko`targani va Amir Husaynning ular tomon yo`l olganligidan xabar topgach, Balx tarafga katta lashkar jo`natib, ul joyning el va ulusini talab kelishni buyurdi. Hazrat Sohibqiron bu holatdan xabar topib, Keshdan zafarpanoh sipoh bilan ularni daf qilmoq uchun yo`l oldi. Malikning lashkariga ul Hazratning kelayotganligi xabari etgach ular Shibirg`on, Balx va Xulmgacha bo`lgan erlarni talab o`tib shoshilinch tarzda qaytib ketdilar. Hazrat Sohibqiron Termiz kechuvi orqali (daryodan) o`tdi. Xurosonliklar qaytib ketganliklari sababli, xon va Amir Husaynni ko`rmoqqa oshiqdi. Amir Husaynga ul Hazratning kelayotganliklarini aytganlaridan so`ng, Badaxshon shohlari bilan sulh tuzib qaytdi va ular Qunduzda uchrashishga muyassar bo`ldilar; bir-birlari bilan quchoqlashib (ko`rishib), ikki o`rtadagi hadiksirash g`ubori uzil-kesil tarqab ketdi. Bir necha kun uzluksiz to`y berib o`yin-kulgi va xursandchilik qildilar. So`ngra u erdan yo`lga otlanib Ishkamish" yayloqiga bordilar. Hazrat Sohibqiron Moxonga kishi yuborib, amirzoda Jahongirning bug`ruq bilan birga dilkash Kesh o`lkasiga kelishini buyurdi. O`sha kezlarda Po`lod va Oqbug`o yasavuriy Kobul qo`rg`onidan panoh topib oyoqni itoat yo`lidan chetga qo`ygan edilar va boshni bo`ysunmoqlik

halqasida tortib olib dushmanlikdan soʻz qotardilar. Amir Husayn va xazrat Sohibqiron katta lashkar tuzib ul tomonga bormoq uchun otlandilar. Hindukush dovonidan oʻtib Kobulga etib borganlarida Poʻlod va Oqboʻgʻo mudofaa va Qarshilik koʻrsatishga tayyorlanib qoʻrgʻonga bekinib oldilar. Bu tomonning lashkari qoʻrgʻonning hamma tomondan oʻrab olib jang qilmoqqa kirishdilar.

(N a z m)

Jang chogʻi yogʻar devor tepasidan, Nayson yomgʻiri — tosh, oʻq tinmasdan.

Goʻyo bulut edi qoʻrgʻon devori, Doʻli uning toshu, oʻqdir yomgʻiri.

Hazrat Sohibqiron oliy ximmatining yuzish qahr-gʻazab bilan dushman sari qaratib, ularni ojiz va muztar qildi, Nusratpanoh bahodirlar mardlik va dovyuraklik namoyish etdilar Xitoy-bahodir, Darveshali-bahodir va yana bir qancha botirlar oʻsha jangda yarador boʻldilar. Ul Hazrat shaxsan oʻzi urushga bosh-qosh boʻlib turganligi uchun dushmanlar nochor ahvolga tushishga majbur boʻldilar. Zafarli lashkar zarb bilan qoʻrgʻon (darvozasi)ni egalladilar Poʻlod va Oqbugʻoni asir oldilar. Qoʻrgonni egallab, dushmanlarni tor-mor qilib va ul diyorni zabt etgach, muzaffar va baxtiyor holda qaytdilar. Shu payt Amir Husayn maslahat tariqasida hazrat Sohibqironga shunday dedi: "Balxni poytaxt qilmoqchiman. Samarqandni vatan qilmoqchi boʻlganida, amirlar va ishonchli kishilar unga, — "oʻz yurtini tark etmoq va oʻzgalar ichida vatan qurmoq aqldan uzoq erur; agar biror mushkullik tugʻilsa begona odamlar ish bermas va qoʻllamas", — deganlarida, ularning yaxshi niyatda aytgan nasihatiga quloq solmadi

Hulosa

Zafarnoma asarida Hazrat Sonibqironning umri davomida qilgan yurishlari bayon qilingan. Unda loy jangi, Gardunshuxrat va Amir Husayin bilan bo'lgan yurishlari tarixi batafsil yoritib berilgan.

Kobilistonga yurishi, Badaxshon, Shiburxon, Balx, Termiz va Xorazm hududlariga qilgan yurishlari ham berilgan. Xulosa qilib shuni aytish kerakki, Temur zamonida yashagan ulug' siymolar ham asarda tilga olinib o'tiladi. Yana atamashunoslikimizga yordamchi so'zlar ham berilgan. Asarda yana Qur'oni Karim suralaridan ham foydalanilgan. Zafarnomada yana Hirot maliki Kurt sulolasining vakili bo'lgan Mauziddin haqida ko'p narsalar keltirilib o'tiladi. Bu biz uchun qimmatli ahamiyatga ega. Bundan tashqari asarda joy nomlari aniq sanalar berilgan, bu esa har bir tarixchi uchun zarur manba bo'lib xizmat qiladi. Asarda XIV asr oxiri va XV asr voqealari to'liq berilgan. Shu davr ijtimoiy – iqtisodiy va madaniy hayoti aniq tasvirlab berilgan. Asar nafaqat tarixiy jihatdan balki geografiya, san'at, adabiyot kabi fanlar bilan aloqadadir. Bunda yana tog', daryo nomlari undan tashqari juda ko'plab joy nomlari keltirilib o'tilgan. Bu esa shu davrni geografik jihatdan chegaralab ko'rsatishga asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I. A. Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q . Toshkent . 1998-y
2. I.A. Karimov . O'zbekistonning o'z istiqboli va taraqqiyoti yo'li . Toshkent . 1992- y
3. I.A. Karimov . O'zbekiston buyuk kelajak sari . Toshkent . 1998-y
4. Sh. .Ali Yazdiy . Zafarnoma asari . Muharrir O. Abdullayev, U. Otajonov Toshkent . 1994-y
5. Bo'riboy Ahmedov . O'zbekiston tarixi manbalari . Toshkent . 2001-y
6. Temur tuzuklari . T. 1991-y.
7. Shomiy . Zafarnoma .
8. Azamat Ziyo . O'zbek davlatchiligi tarixi . Toshkent . 2000-y
9. Abdumajid Madraimov. Gavhar Fuzoilova . Manbashunoslik T 2008.
10. Matyoqubova Muborak. Manbashunoslik o'quv uslubiy qo'llanma U 2008.
11. Qayumov A, Ishaqov M, Yozma yodgorliklar T 2000
12. Axmedov B O'zbekiston tarixi manbalari T 2001
13. Habibullayev A Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik T 2001
14. Ishaqov M, Sodiqov M O'lmas obidalar T 1989